

**ADABIY ASARLARDA IQTISODIY MUNOSABATLAR VA IQTISODIY
TAFAKKURNING BADIY TALQINI**

Inatullayeva Intizor Jamshid qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Moliya fakulteti

MMT-51/24 guruh talabasi

E-mail: inatullayevaintizor@gmail.com

Ilmiy rahbar: Muxlisa Muxitdinova Sadriddinovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“O‘zbek va rus tillari” kafedrasida dotsenti

**MAQOLA
MALUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 08.05.2026

Revised: 09.05.2026

Accepted: 10.05.2026

KALIT SO‘ZLAR:

*iqtisodiy tafakkur,
iqtisodiy munosabatlar,
badiiy talqin,
kambag‘allik, resurslar
taqchilligi, mehnat,
ijtimoiy tengsizlik.*

Mazkur maqolada o‘zbek adabiyotining yirik namoyandasi Abdulla Qahhor asarlaridagi iqtisodiy munosabatlar va iqtisodiy tafakkurning badiiy ifodalanishi tahlil qilindi. Xususan, “Anor”, “Bemor”, “O‘g‘ri”, “Ming bir jon” hamda “Qo‘shchinor chiroqlari” asarlari asosida iqtisodiy muammolar, resurslar taqchilligi, ijtimoiy tengsizlik va mehnat omilining badiiy talqini ochib berilgan. Tadqiqot natijasida adabiyotning iqtisodiy tafakkurni shakllantirishdagi o‘rni asoslab berilgan.

Kirish

Adabiyot jamiyat hayotining muhim ko‘zgusi bo‘lib, unda insonning turmush tarzi, ehtiyojlari va muammolari aks etadi. Ayniqsa, iqtisodiy munosabatlar badiiy asarlarda ko‘pincha bevosita emas, balki obrazlar va voqealar orqali ifodalanadi. Abdulla Qahhor ijodi bu jihatdan alohida e‘tiborga loyiqdir. Uning asarlarida oddiy insonlar hayoti orqali iqtisodiy

muammolar real tasvirlangan. Mazkur maqolaning asosiy maqsadi - yozuvchining ayrim asarlarida iqtisodiy tafakkur qanday aks etganini tahlil qilishdir.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

O‘zbek adabiyotshunosligida Abdulla Qahhor ijodi ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, uning asarlari asosan realizm, satira, inson psixologiyasi va ijtimoiy muammolar nuqtai nazaridan tahlil qilingan. A.Alimuhamedov, P.Qodirov, M.Qo‘shjonov, S.Sodiqov, R.Qo‘chqorovning dokrorlik va nomzodlik dissertatsiyalari qahhorshunoslikka qo‘shilgan muhim hissa sifatida e‘tirof etilgan. [1] Qahhor ijodining muhim xususiyatlaridan biri — hayotiylik va oddiy inson taqdirini tabiiy va ishonarli tasvirlashidir.

Adabiyotshunos olimlar Qahhor asarlarida jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik, kambag‘allik va turmush qiyinchiliklari masalalariga alohida e‘tibor qaratganliklarini ta‘kidlaydilar. Xususan, yozuvchining hikoyalarida oddiy insonlarning kundalik hayoti, ularning muammolari va yashash uchun kurashi realistik uslubda ifodalangani qayd etiladi. Bu jihatlar uning asarlarini nafaqat badiiy, balki ijtimoiy ahamiyatga ega manbaga aylantiradi.

Shuningdek, ayrim tadqiqotlarda Qahhor ijodida insonning ichki dunyosi, ruhiy kechinmalari va hayotga bo‘lgan munosabati chuqur tahlil qilingan. Bu esa uning asarlarida iqtisodiy muammolar faqat tashqi omil sifatida emas, balki inson ruhiyatiga ta‘sir etuvchi muhim faktor sifatida ham aks etganini ko‘rsatadi. Biroq mavjud ilmiy ishlarda yozuvchi asarlaridagi iqtisodiy tafakkur masalasi alohida yo‘nalish sifatida yetarli darajada o‘rganilmagan. Asosan iqtisodiy jihatlar ijtimoiy muammolar doirasida umumiy tarzda tilga olinadi, ammo ularning iqtisodiyot nazariyasi bilan bog‘liqligi chuqur ochib berilmaydi.

Shu sababli, Abdulla Qahhor asarlarini iqtisodiy tafakkur nuqtai nazaridan tahlil qilish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ushbu maqola aynan shu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan bo‘lib, badiiy asarlar orqali iqtisodiy tushunchalarning qanday ifodalanishini ochib berishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot davomida matn tahlili, solishtirma tahlil va kontekstual yondashuv metodlaridan foydalanildi. Asarlardagi voqealar va obrazlar iqtisodiy nuqtai nazardan tahlil qilindi. Shuningdek, asarlar yaratilgan davrning ijtimoiy-iqtisodiy sharoiti ham hisobga olindi.

Tahlil va natijalar

Ushbu maqolada Abdulla Qahhorning “Bemor”, “Anor”, “Ming bir jon”, “O‘g‘ri” va “Qo‘shchinor chiroqlari” asarlari iqtisodiy nuqtai-nazardan ko‘rib chiqildi. Tahlil davomida shuni ko‘rish mumkinki, yozuvchi iqtisodiy masalalarni alohida tushuntirib bermaydi, balki ularni oddiy hayotiy voqealar orqali bayon etadi. “Bemor” hikoyasida esa daromad

yetishmovchiligi inson hayotiga qanday ta'sir qilishi ochib beriladi. Bu asarda iqtisodiy imkoniyatlarning pastligi inson salomatligiga bevosita ta'sir qilishi yaqqol ko'rinadi. "Osmon yiroq, yer qattiq". "...Sotiboldi kasalni o'qitdi bo'lmadi, tabibga ko'rsatdi. Tabib qon oldi. Betobning ko'zi tinib, boshi aylanadigan bo'lib qoldi. Baxshi o'qidi. Allaqanday bir xotin kelib tolning xipchini bilan savaladi, tovuq so'yib qonladi... Bularning hammasi, albatta, pul bilan bo'ladi. Bunday vaqtlarda yo'g'on cho'ziladi, ingichka uziladi". "...Shifoxona deganda Sotiboldining ko'z oldiga izvosh va oq podshoning suvrati solingan 25 so'mlik pul kelar edi". [2] Asarni o'qiganda shuni tushunish mumkin: faqat kasallik emas, balki pul yo'qligi ham inson taqdirini hal qiladi. Bu esa iqtisodiy imkoniyatlar hayot sifati bilan bevosita bog'liqligini bildiradi. Inson hayotida resurslar kam bo'lsa, tanlov qilish ham qiyinlashishini ko'rsatadi. Ya'ni iqtisodiy imkoniyatlar bevosita kundalik hayotga ta'sir qiladi. "Ming bir jon" hikoyasida esa insonning sabri va mehnati oldinga chiqadi. Bu hikoyada qahramonning yashash uchun kurashi, qiyinchiliklarga qaramay harakat qilishi ko'rsatiladi. Bundan shuni anglash mumkinki, ba'zan insonning o'z harakati ham uning holatini yaxshilashda katta rol o'ynaydi. [3] "Anor" hikoyasida resurslar taqchilligi va ehtiyojlar o'rtasidagi ziddiyat ko'rsatiladi. Bu yerda oddiy bir ne'mat orqali iqtisodiyotdagi tanlov muammosi aks etadi. "Uylar to'la non, och-nahorim, bolam, Ariqlar to'la suv, tashnai zorim, bolam". "...Ko'cha eshigi ochildi. Xotin to burilib qaraguncha Turobjon katta bir tugun ni orqalab kirib keldi. U tugunni uyning o'rtasiga tashladi. Bir choyshab anor har tomonga yumalab ketdi, bir nechasi obrezga tushdi. Turobjon xotiniga qaradi. Uning rangini ko'rib xotin qo'rqib ketdi – bu qadar oqargan! Turobjon o'tirib peshonasini ushladi". [4] "O'g'ri" hikoyasida jamiyatda iqtisodiy barqarorlik va tenglik bo'lmasa, jinoyatlar ko'payadi. "Otning o'limi itning bayrami". "Ellikboshi ho'kizni juda naqd qilib qo'ydi – go'yo u ko'chaga chiqsa bas – ho'kiz topiladi. Bu «xudo yallaqag'ur» shunchalik qilgandan keyin bir nima berish lozimda. Tekinga mushuk oftobga chiqmaydi. Bu odam ellikboshi bo'lish uchun ozmuncha pul sochganmi? Mingboshining bir o'ziga yetti yuz bog' beda, bir toy bergani ma'lum". [5] Bu hikoyada insonning xatti-harakati ko'pincha uning iqtisodiy sharoitiga bog'liq bo'lishi ochib beriladi. "Ming bir jon" asarida insonning mehnati, sabri va chidamliligi asosiy o'ringa chiqadi. Bu esa iqtisodiy jihatdan inson kapitalining ahamiyatini ko'rsatadi. "Qo'shchinor chiroqlari" asarida esa voqealar kengroq, jamiyat darajasida tasvirlanadi. Bu yerda yangi iqtisodiy munosabatlar, odamlarning o'zgarishlarga moslashishi va manfaatlar to'qnashuvi seziladi. Asarni o'qib shuni tushunasizki, iqtisodiy o'zgarishlar faqat pul yoki ishlab chiqarish bilan emas, balki odamlarning fikrlashi bilan ham bog'liq. [6] Umuman olganda, barcha asarlarda bitta umumiy fikr bor: iqtisodiy sharoit inson hayotiga juda katta ta'sir qiladi. Ba'zan u

imkoniyatlarni cheklasa, ba'zan esa insonni harakat qilishga undaydi. Abdulla Qahhor esa buni juda sodda, lekin ta'sirli qilib ko'rsatib bergan.

Xulosa va takliflar

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, Abdulla Qahhor asarlarida iqtisodiy munosabatlar va iqtisodiy tafakkur masalalari oddiy hayotiy voqealar orqali chuqur va ta'sirchan yoritilgan. Yozuvchi iqtisodiy muammolarni quruq nazariya sifatida emas, balki inson taqdiri, ehtiyojlari va kundalik turmushi bilan bog'liq holda tasvirlaydi. Bu esa iqtisodiy jarayonlarni yanada realroq tushunishga yordam beradi. Ayniqsa, "Anor", "Bemor", "Ming bir jon" va "Qo'shchinor chiroqlari" asarlarida resurslar taqchilligi, daromad yetishmovchiligi, mehnat omili va ijtimoiy tengsizlik kabi iqtisodiy tushunchalar badiiy obrazlar orqali ochib berilgan. Bu jihatlar iqtisodiyot nazariyasida o'rganiladigan ko'plab masalalarning hayotiy ifodasini ko'rsatadi.

Shu nuqtai nazardan, iqtisodiyot universitetida tahsil olayotgan talabalar uchun badiiy adabiyot, xususan, Abdulla Qahhor asarlarini muntazam mutolaa qilish muhim ahamiyatga ega, chunki bunday asarlar orqali iqtisodiy tushunchalarni nafaqat nazariy, balki amaliy va insoniy jihatdan ham anglash mumkin bo'ladi.

Taklif sifatida shuni ayta olamanki, iqtisodchi va moliyachi sifatida nafaqat ilmiy darsliklar, balki badiiy asarlarni ham o'qish zarur. Bu esa iqtisodiy tafakkurni kengaytiradi, real hayotdagi muammolarni chuqurroq tushunishga yordam beradi va kelajakda to'g'ri iqtisodiy qarorlar qabul qilishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "Qahhorni anglash mashaqqati", U.Normatov, Toshkent-2000.
2. "Adabiyot 6-sinf", Darslik, S. Ahmedov, R. Qo'chqorov, Sh. Rizayev. – Toshkent: "Ma'naviyat", 2017.
3. "Adabiyot muallimi": hikoyalar, A.Qahhor. – Toshkent: "Zabarjad Media", 2025.
4. "Anor", Qissa va hikoyalar, A.Qahhor – G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent-2012.
5. "Adabiyot muallimi": hikoyalar, A.Qahhor. – Toshkent: "Zabarjad Media", 2025.
6. "Qo'shchinor chiroqlari": roman, A.Qahhor. – Toshkent-2023.